



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlanitirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истiqболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиева Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

8. Ablaev A.R., Ablaev R.R. Korxona raqobatbardoshligini baholash metodlarini tanlash. – M.: Direkt-Media, 2007. – 43-b.y
9. Сирожиддинов К. И., Тохирова Г. Т. РАЗВИВАЮЩАЯСЯ СФЕРА УСЛУГ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ТУРИЗМА //TIU Journal of Digital Economy and Business. – 2023. – Т. 2. – №. 2.
10. Якубжанов Р. Роль Сельского Хозяйства В Экономике Нашей Страны //Универсальная индексная библиотека Центрально-Азиатского журнала образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 5 Part 3. – С. 59-67.

UDK: 338.242

**RISKLARNI INTEGRAL BAHOLASH KICHIK BIZNESDA MOSLASHUVCHAN
BOSHQARUV TIZIMI ASBOBI SIFATIDA**

**РИСКЛАРНИ ИНТЕГРАЛ БАХОЛАШ КИЧИК БИЗНЕСДА МОСЛАШУВЧАН
БОШКАРУВ ТИЗИМИ АСБОБИ СИФАТИДА**

**RISKLARNI INTEGRAL BAHOLASH KICHIK BIZNESDA MOSLASHUVCHAN
BOSHQARUV TIZIMI ASBOBI SIFATIDA**

Nasritdinov Bekzod Xusnutdinovich

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0008-8095-8345

Annotatsiya

Maqolada orqali korxonaning moslashuvchan rivojlanishini ta'minlash maqsadida risklarni baholashning nazariy-metodologik xususiyatlarini ko'rib chiqishga urinish qilingan. Risk darajasini baholashning yangi integral yondashuvi taklif etilgan bo'lib, ushbu usul miqdoriy tahlil usullarini, normativ usul, ekspert baholash usuli va statistik usulni kompleks qo'llashga asoslanadi. Usul korxona faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish orqali korxonadagi risklik vaziyatni aniqlash va statistik usul yordamida korxonada yuzaga kelgan risklik vaziyatni tezkor baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: miqdoriy tahlil, normativ, ekspert baholash, statistik usul, integral ko'rsatkich, baholash; moslashuvchan rivojlanish; risklar.

В статье рассматриваются теоретические и методологические особенности оценки рисков в целях обеспечения гибкого развития предприятия. Предлагается новый комплексный подход к оценке уровня риска, основанный на интегрированном использовании методов количественного анализа, нормативных методов, методов экспертной оценки и статистических методов. Метод позволяет выявлять рисковую ситуацию на предприятии путем анализа динамики основных показателей деятельности предприятия и оперативно оценивать возникшую рисковую ситуацию с помощью статистических методов.

Ключевые слова: количественный анализ, нормативный, экспертная оценка, статистический метод, интегральный показатель, оценка; гибкое развитие; риски.

The article attempts to examine the theoretical and methodological features of risk assessment in order to ensure the flexible development of an enterprise. A new integral approach to assessing the level of risk is proposed, which is based on the complex application of quantitative analysis methods, the normative method, the expert assessment method, and the statistical method. The method allows identifying a risk situation at an enterprise through the analysis of the dynamics of key performance

indicators and promptly assessing the risk situation that has arisen at the enterprise using statistical methods.

Keywords: quantitative analysis, normative, expert assessment, statistical method, integral indicator, assessment; flexible development; risks.


Kichik biznes iqtisodiy faoliyatiga ko‘plab omillar ta‘sir ko‘rsatadi, shu bilan birga alohida olib qaralgan omilning ta‘hiri boshqa omillar ta‘sirida kuchayishi yoki pasayishi ham mumkin. Shu boisdan ham quyi, o‘rta va yuqori oraliklarda baholash asosida risklarning mumkin bo‘lgan eng kam zararli ta‘sir darajasini baholash asosida ushbu risk ta‘sirini to‘liq hisobga olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv usullaridan foydalanish mavjud resurslardan samarali foydalanish ichki va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga tezkor javob bera olish qobiliyatini nazarda tutiladi. Risklarni baholash biznesda harakat vektorini intuitiv ravishda his qilish, biznes reja, investion loyiha yoki iqtisodiy rivojlanish rejasini amalga oshirish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimining strategiyasi deyarli har qanday vaziyatga mos keladigan universal metodika va risklarni baholashning asosiy parametrlari tizimiga asoslanishi kerak. Risklarni miqdoriy baholashning asosiy usullarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ma‘lum bir usuldan alohida foydalanganda, menejment risklar ta‘sirining darajasi haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lmaydi, bu esa korxonaning moslashuvchan rivojlanishiga ta‘sir qiladi. Shu sababli, zamonaviy sharoitda usullarni qo‘llashning kombinatsiyalashgan tamoyili talab etiladi, chunki bu holda bir usulning kamchiliklarini boshqa usullardan foydalanish hisobiga bartaraf etish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Statistik usul elementlarini qo‘llash risklik vaziyatlarni aniqlash imkonini beradi, lekin korxona faoliyatidagi aniq risklarni identifikatsiya qilmaydi, balki riskni yagona miqdor sifatida ko‘rib chiqadi. Bu esa korxonaning tashqi risklarini aniqlay oladigan nosozliklar daraxti usulidan foydalanishni taqozo etadi. Ammo bu usul risklarning kattaligini baholay olmaydi, bu esa boshqa usullardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Bunday holda, ekspert baholash usuli tashqi muhitda yuzaga keladigan va korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan risklarni baholashga yordam beradi. Normativ usul esa mikro darajada yuzaga keladigan va umuman moslashuvchan rivojlanishga ta‘sir qiluvchi barcha risklar majmuasini baholashga yordam beradi.

Risk darajasini miqdoriy baholashning taklif etilgan integral metodikasini shartli ravishda uchta blokka bo‘lish mumkin:

- birinchi blok – korxonaning tashqi risklarini kompleks baholash;
- ikkinchi blok – korxonaning ichki risklarini kompleks baholash;
- uchinchi blok – natijalarni birlashtirish va korxonaning moslashuvchan faoliyatidagi risklarning integral ko‘rsatkichini olish. Taklif etilayotgan baholash usulining umumiy algoritmi to‘rt bosqichdan iborat (1-rasm).



1-rasm. Risklarni integral baholash usulining bosqichlari

Birinchi bosqichda statistik tadqiqot usulining asosiy ko‘rsatkichlari – o‘rtacha kvadratik og‘ish va variatsiya koeffitsiyenti hisoblanadi. Risk darajasini baholashning birinchi ko‘rsatkichi uning sifat tomonini tavsiflaydi va korxonaning moliyaviy natijasi uning o‘rtacha kutilayotgan qiymatidan qanday og‘ishini ko‘rsatadi; ikkinchisi esa riskning intensivligi haqida gapiradi va korxonaning qaysi risk sohasiga tushib qolganini aniqlash imkonini beradi. Taklif etilgan ko‘rsatkichlar yordamida risk darajasini baholash risklarni bir-biri bilan taqqoslanadigan qilishni anglatadi. Risk ta‘sir etuvchi

asosiy omillarni aniqlash usulning ikkinchi bosqichidir. Ushbu bosqichda kichik biznes korxonasi faoliyatiga va uning moslashuvchan rivojlanishiga ta'sir qiluvchi tashqi risklar majmuasini aniqlash imkonini beradi. Globallashuv, moliyaviy liberallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy subyektlar faoliyati noaniqlik darajasining ortishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda risklarni aniqlash, miqdoriy baholash va samarali boshqarish strategik ustuvor vazifaga aylanmoqda. Kichik biznesda risklarni baholash amaliyoti ko'p hollarda fragmentlar va soddalashtirilgan yondashuvlarga tayanadi. Xalqaro amaliyotda esa kompleks, integratsiyalashgan va matematik modellarga asoslangan tizimlar qo'llaniladi. Shu sababli, milliy va xalqaro tajribani uyg'unlashtirgan metodologik asosni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan risk — bu kutilgan natijaning matematik kutish qiymatidan chetlashish ehtimoli bilan bog'liq iqtisodiy kategoriyadir.

Agar natija tasodifiy o'zgaruvchi (X) bo'lsa, uning matematik kutishi:

$$E(X) = \sum_{i=1}^n p_i x_i$$

bu yerda:

- x_i — ehtimoliy natija,
- p_i — uning ehtimoli.

Risk darajasi dispersiya orqali aniqlanadi:

$$\sigma^2 = \sum_{i=1}^n p_i (x_i - E(X))^2$$

O'rta kvadratik og'ish:

$$\sigma = \sqrt{\sigma^2}$$

Variatsiya koeffitsiyenti:

$$V = V = \frac{\sigma}{E(X)}$$

Bu ko'rsatkichlar risk darajasining nisbiy va mutlaq bahosini ta'minlaydi.

1. Ekspert baholash metodologiyasi. Ekspert usuli ma'lumotlar cheklangan sharoitda qo'llaniladi. Uning ilmiy asosi ko'p mezonli qaror qabul qilish nazariyasiga borib taqaladi.

Delphi metodi algoritmi:

1. Ekspertlar guruhini shakllantirish.
2. Anonim baholash.
3. Iterativ muvofiqlashtirish.
4. Konsensusga erishish.

Agar (R_j) — j-ekspert bahosi bo'lsa, integral baholash:

$$R = \frac{1}{m} \sum_{j=1}^m R_j$$

Salmoqli baholashda:

$$R = \sum_{j=1}^m \omega_j R_j$$

bu yerda (ω_j) — ekspertning ishonch koeffitsiyenti.

2. Statistik va ekonometrik usullar. Risklarni baholashda regressiya modeli:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \varepsilon$$

bu yerda:

- (Y) — natijaviy ko'rsatkich,

- (X_i) — risk omillari,
- ε — tasodifiy xatolik.

Moliyaviy riskni baholashda Value at Risk (VaR) modeli qo‘llaniladi:

$$VaR = Z_{\alpha} * \sigma * \sqrt{t}$$

bu yerda:

- Z_{α} — ishonch darajasi koeffitsiyenti,
- σ — standart og‘ish,
- t — vaqt gorizonti.

3. Portfel va bozor risklari. Harry Markowitz portfel modeliga ko‘ra, ikki aktivlik portfel riski:

$$\sigma_p^2 = \omega_1^2 \sigma_1^2 + \omega_2^2 \sigma_2^2 + 2\omega_1 \omega_2 \sigma_1 \sigma_2 \rho_{12}$$

bu yerda ρ_{12} — korrelyatsiya koeffitsiyenti.

CAPM modeli:

$$E(R_i) = R_f + \beta_i(R_m - R_f)$$

bu yerda:

- β_i — sistematik risk ko‘rsatkichi,
- R_f — riskdan holi stavka,
- R_m — bozor daromadliligi.

International Organization for Standardization tomonidan ishlab chiqilgan ISO 31000 standarti risk-menejment jarayonini quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Kontekstni belgilash
2. Risklarni aniqlash
3. Risk tahlili
4. Risk baholash
5. Monitoring va qayta ko‘rib chiqish

Milliy iqtisodiyot sharoitida quyidagi gibrid model taklif etiladi:

$$R_{integral} = \alpha R_{expert} + \beta R_{stat} + \gamma R_{scenario}$$

bu yerda:

- $(\alpha + \beta + \gamma = 1)$

Bu model ma’lumotlar cheklangan va noaniqlik yuqori bo‘lgan sharoitda samarali hisoblanadi.

Risklarni baholashda yagona yondashuvdan foydalanish turli omillarni hisobga olish imkoniyatini cheklab qo‘yadi. Shu bois zamonaviy risk-menejment nazariyasida ehtimoliy xarakterga ega ko‘rsatkichlardan kompleks tarzda foydalanish tavsiya etiladi. Statistik tahlil usullari ayniqsa ommaviy va takrorlanuvchi iqtisodiy jarayonlarda samarali hisoblanadi. Biroq ular katta hajmdagi ishonchli ma’lumotlar bazasini talab qiladi.

Statistik tahlil jarayonida quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

1. O‘rtacha kutilgan qiymat (matematik kutish)

Tasodifiy iqtisodiy natija (X) quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\hat{X} = E(X) = \sum_{i=1}^n x_i p_i = x_1 p_1 + x_2 p_2 + \dots + x_n p_n$$

bu yerda:

- x_i — i -natija qiymati,
- p_i — ushbu natijaning ehtimoli,
- n — ehtimoliy holatlar soni.

3. O‘rta kvadratik og‘ish (σ)

$$\sigma = \sqrt{D}$$

standart og‘ish qanchalik katta bo‘lsa, risk darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi.

4. Variatsiya koeffitsiyenti (V)

$$V = \frac{\sigma}{\bar{X}} * 100\%$$

Bu ko‘rsatkich riskning nisbiy darajasini belgilaydi va turli loyihalarni solishtirish imkonini beradi.

Talqin shkalasi:

- $V < 10\%$ — past risk;
- $10\%-25\%$ — o‘rta risk;
- $V > 25\%$ — yuqori risk.

5. Korrelyatsiya koeffitsiyenti

Ikki omil o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi:

$$r_{xy} = \frac{\text{Cov}(x, y)}{\sigma_x \sigma_y}$$

Korrelyatsiya koeffitsiyenti -1 dan $+1$ gacha qiymat qabul qiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda statistik risk baholash modellari regulativ standartlar asosida qo‘llaniladi. Masalan:

- ISO 31000 — risk boshqaruv tizimini tizimlashtiradi.
- Basel Committee on Banking Supervision — bank risklarini kapital yetarliligi orqali tartibga soladi.

Risklarni statistik baholashda omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, investitsion qarorlar qabul qilishda natijaviy ko‘rsatkich (masalan, foyda, daromad, investitsiya qaytimi) bilan omillar (investitsiya hajmi, bozor talab dinamikasi, inflyatsiya darajasi va boshqalar) o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash talab etiladi.

Bu bog‘liqlikni aniqlash uchun korrelyatsiya koeffitsiyenti qo‘llaniladi:

$$r_{xy} = \frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \hat{w})(y_i - \hat{y})}{\sqrt{\sum_{i=1}^n (x_i - \hat{w})^2} \sqrt{\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y})^2}}$$

bu yerda:

- x_i — omil ko‘rsatkichlari,
- y_i — natijaviy ko‘rsatkich,
- $\hat{w}, \hat{y}$ — ularning o‘rtacha qiymatlari.

Iqtisodiy mazmun

- ($r \rightarrow 1$) — kuchli musbat bog‘liqlik;
- ($r \rightarrow -1$) — kuchli manfiy bog‘liqlik;
- ($r \approx 0$) — chiziqli bog‘liqlik yo‘q.

Risk-menejment nuqtai nazaridan, yuqori musbat korrelyatsiya risk konsentratsiyasini, past yoki manfiy korrelyatsiya esa diversifikatsiya imkoniyatini anglatadi.

Korrelyatsiya tahlili va normal taqsimot modeli risklarni baholashning fundamental statistik asosini tashkil etadi. Biroq, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida asimmetrik risklar, ekstremal holatlar, nostabil volatillik ham hisobga olinishi lozim. Shu sababli, milliy amaliyotda klassik statistik modellarni zamonaviy ekonometrik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Risklarni aniqlash va baholash jarayonida statistik metodlar fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, ular risk darajasini aniq raqamlar va ehtimolliklar yordamida ifodalash imkonini beradi.

Risk darajasini integral baholashning taklif etilgan usuli korxona faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish orqali korxonadagi risklik vaziyatni aniqlash va statistik usul

yordamida risklik vaziyatni tezkor baholash imkonini beradi. Taklif etilayotgan baholash usullari korxona o‘z faoliyatida duch keladigan tashqi risklarni aniqlaydi va normativ usuldan foydalanish aynan qaysi ichki risklar eng xavfli ekanligini va ularni moslashuvchan rivojlanish strategiyasi doirasida kamaytirish zarurligini ko‘rsatishi mumkin. Risk darajasini integral baholash ko‘rsatkichi korxonalarga nafaqat risklarni boshqarishning umumiy strategiyasini tanlash, balki operativ davrda umuman moslashuvchan rivojlanishni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жданов В. Ю. Жданов И. Ю. Финансовый анализ предприятия с помощью коэффициентов и мо делей: учебное пособие. М.: Проспект, 2023.
2. Анализ финансово-хозяйственной деятельности предприятия: учеб, пособие / под ред. М. В. Мельника. М.: Форум, 2020. 192 с.
3. Монсуй А. П. Управление прибылью и рентабельностью коммерческой организации // Наука на рубеже тысячелетий. 2019. № 12.
4. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятий: учебник / под ред. проф. В. Я. Позднякова. М.: ИНФРА-М, 2018.
5. Прибыткова Г. В. Анализ и оценка рисков предприятий производственной сферы в процессе инвестиционного проектирования // Вестник МГТУ. 2005. Т.8, № 2. С. 301.
6. Мухитдинов Ш. З. Тадбиркорлик субъектларида хатарларни бошқаришнинг назарий-услубий асослари //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 939-943.
7. Семенова К. Д., Тарасова К. И. Риски деятельности промышленных предприятий: монография. Одесса, 2017
8. Sirojiddinov K.I. Korxona xo‘jalik faoliyatidagi iqtisodiy xatarlar va ularni boshqarish. Monografiya.- Namangan. 2025. 114 b.
9. Тарасова К. И. Качественный анализ рисков деятельности предприятия // Уральский научный вестник, Экономические науки. 2013. № 28 (76). С. 72.
10. Шаталова Я. Е. Сущность показателей рентабельности // Инновации. Наука. Образование. 2021.